

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-2>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

RASULOV Murad Absamatovich*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**Tasviriy san'at kafedrası**dotsent v.b.*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10615239>

О‘ЗБЕК ХАЛҚ АМАЛИЙ БЕЗАК САЊАТ ТАРИХИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

ANNOTATSIYA

Bu maqolada O‘zbekistonning qadimiy va azaliyligini aks ettiruvchi milliy an‘analarimizni bizga eslatib turuvchi amaliy san‘atimiz haqida ma‘lumotlar keltirilgan. O‘zbek xalqining amaliy me‘morchilik san‘ati o‘ziga xos boy an‘analarga ega hisoblanadi. Bizning davrimizga qadar yetib kelgan amaliy me‘morchilik san‘ati asarlari rang-barang va xilma-xildir. Bular nafislik bilan ishlanadigan ganch o‘ymakorlik namunalari, kulollik buyumlari, yog‘och va metallardan ishlangan uy-ro‘zgor ashyolari, badiiy kashta bilan bezalgan so‘zanalar, zarhal kashtalar, turli xil do‘ppilar, zargarlik buyumlari va boshqalardir. Amaliy san‘atning rivojlanishiga hissa qo‘shgan ustalarning ishlari haqida aytib o‘tilgan. O‘zbekistondagi amaliy san‘at maktablarining bir biridan farqi hamda amaliy san‘atning go‘zaligini yuzaga chiqarib beruvchi naqsh turlari haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: naqsh elementi, kompozitsiya, zarhal, kashta, bargli raftori, girih, peshtoq, qumg‘on, isiriqdon, obdasta, surmadon, grafika, rangtasvir, dastsho‘y.

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ЕГО РАЗВИТИЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о нашем прикладном искусстве, которое напоминает нам о наших национальных традициях, отражающих древность и древность Узбекистана. Прикладное архитектурное искусство узбекского народа имеет свои богатые традиции. Произведения прикладного архитектурного искусства, дошедшие до нашего времени, разнообразны и разнообразны. Это образцы изящной резьбы Ганча, керамика, предметы домашнего обихода из дерева и металла, Сузаны, украшенные художественной вышивкой, позолоченная вышивка, различные тюбетейки, украшения и многое другое. Упоминаются работы мастеров, которые способствовали развитию прикладного искусства. Приведены различия между школами прикладного искусства в Узбекистане, а также типы узоров, раскрывающих красоту прикладного искусства.

Ключевые слова: элемент узора, композиция, позолота, вышивка, листовая стропила, гирих, кровля, песочница, ладан, обдasta, сурьма, графика, живопись, стеллажи.

THE HISTORY OF UZBEK FOLK DECORATIVE AND APPLIED ART AND ITS DEVELOPMENT

ANNOTATION

This article provides information about our applied art, which reminds us of our national traditions reflecting the antiquity and antiquity of Uzbekistan. The applied architectural art of the Uzbek people has its own rich traditions. The works of applied architectural art that have come down to our time are diverse and varied. These are samples of exquisite Gancha carvings, ceramics, household items made of wood and metal, Susannas decorated with artistic embroidery, gilded embroidery, various skullcaps, jewelry and much more. The works of masters who contributed to the development of applied art are mentioned. The differences between the schools of applied art in Uzbekistan, as well as the types of patterns that reveal the beauty of applied art, are presented.

Keywords: pattern element, composition, gilding, embroidery, sheet rafters, girih, roof, sandbox, incense, paste, antimony, graphics, painting, shelving.

Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, insonning estetik dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmatini bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

Xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum Amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi[1].

Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. Inson yashar ekan har doim go'zalikka intilib yashaydi, atrofidan nafislik va go'zallikni qidiradi.

Insoniyatni amaliy san'atga intiltirgan narsa bu avvalo insoniyatning yanada shakllanishidir. U shakllangani sari olamni ko'proq ko'rib bilib, uni kuzatib undagi Alloh yaratgan go'zallikni o'zi yasagan buyumlarida ma'lum bir o'zgartirish asosida aks ettirgan. Ya'ni amaliy san'atda keng qo'llaniladigan naqshlarni asosiy qismlari atrofimizdagi borliqdan olingan. Har bir naqsh elementining maxsus qiyosi va ularning mazmuni bor. O'zbekistondagi barcha viloyatlarda amaliy san'at namunalaridagi uslub va o'zgarishlar ularning iqlimi ularning azaliy va qadimiy an'analardan kelib chiqib farqlanadi. Har bir hududagi naqsh elementlari va kompozitsiyalarning ma'lum bir qismlari ham bundan mustasno emas [3].

O'zbek xalqining amaliy me'morchilik san'ati o'ziga xos boy an'analarga ega hisoblanadi. Bizning davrimizga qadar yetib kelgan amaliy me'morchilik san'ati asarlari rang-barang va xilma-xildir. Bular nafislik bilan ishlanadigan ganch o'ymakorlik namunalari, kulollik buyumlari, yog'och va metallardan ishlangan uy-ro'zgor ashyolari, badiiy kashta bilan bezalgan so'zanalar, zarhal kashtalar, turli xil do'ppilar, zargarlik buyumlari va boshqalardir [5].

Bola tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalar shubhasiz yuksak ma'no kasb etadi. Azaldan bu kabi hunarlar ustalarga shogird tushilib o'rganilgan. Bolaning hunar o'rganishiga qiziqtirishdan maqsad uning kelajagi uchun va mehnatkashlikka o'rgatish hamda halol luqma bilan kelajakda oilasini ta'minlashi nazarda tutilgan. "Hunarli kishi xor bo'lmas" maqoli ostida xalq aholisi ish ko'rgan ya'ni qo'lida biror hunari bo'lgan inson birovga qaram bo'lib qolmagan.

Amaliy san'atda asosiy o'rinni kompozitsiya ya'ni naqshlar elementlari egallaydi. Naqsh – bu arabcha tasvir, gul degan ma'nolarni anglatadi. Har bir amaliy san'at turida ko'plab naqsh elementlaridan foydalanib, san'at asarlari ishlanadi. Amaliy san'atdagi naqsh elementlaridan o'simliksimon kompozitsiya tuzish uchun (barg, band, marg'ula, gul, g'uncha, bog'lam va sirtmoqlar) kabi elementlardan kompozitsiyalar tuziladi. Kompozitsiya qanchalik go'zal chiqishi uchun esa shu aytilgan kabi elementlar mukammal qilib ishlanishi kerak. Masalan, "marg'ula" elementi qo'sh chiziqli gajak bo'lib, u naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, misgarlik kabi amaliy san'at sohalorida keng qo'llaniladi [5].

Yana naqsh kompozitsiyalarini boyitish uchun "bargli raftori" kabi naqsh elementlari ham qo'llaniladi. Bunda Islimi gullar yo'llari va tuzilishiga qarab nomlanadi, ya'ni yak raftor, du raftor, gulli raftor, barg elementlaridan tuzilgani esa bargli raftor deyiladi. Aylana islami – bu esa islami gullar aylanadan tuzilgani uchun "aylana islami" deb ataladi. Grix – forschadan olingan bo'lib chigal, tugun degan ma'nolarni beradi. Grih asosan geometrik shakllardan ishlanadigan naqsh turidir, bu naqsh turi e'tiborni ko'p talab etadi sababi shundaki, naqsh kompozitsiyasini ishlash jarayonida e'tibor bilar chiziqlar orqali to'qilishi zarur bo'ladi bu esa ishning asosiy qismidan biridir. Islimiy ya'ni o'simliksimon naqsh turi bor bu naqsh turida atrof olamdan ilhomlanib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Bu naqsh turini tuzish uchun barg, g'uncha, gul va novda kabi elementlarning turlicha ko'rinishidan foydalaniladi.

Qadimiy amaliy san'atning turlaridan ya'na biri bu "Naqqoshlik san'ati"dir bu san'at namunasi barcha amaliy san'at asrlarining negizi hisoblanadi. Naqqoshlikning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan ustalardan biri, naqqoshlik maktabini yaratgan ustazoda naqqoshlardan Saidm Mahmud Norqo'ziyevdir. 1946-yili Alisher Navoiy nomidagi teatr binosiga turli viloyatlardan ganch o'ymakorlar, naqqoshlar, yog'och o'ymakorlar, misgarlar va boshqa hunarmandlar taklif etildi, shu ustalar ichida usta Nurqo'ziyev ham naqsh bezagiga taklif etilgan. Uning boshchiligida Farg'ona zali bezatildi, u ko'pgina andozalar tayyorlab bergan [4].

Nafislik bilan ishlangan ganch o'ymakorlik namunalri me'morchilik taraqqiyotida o'ziga xos o'rni bor. Mohir ustalar shu kungacha nozik va insonga zavq bag'ishlovchi ijod namunalari yaratib kelishgan. Bular: taxmon va deraza chetlari zanjira deb ataluvchi naqsh bilan hoshiyalangan, ko'zgular atrofiga, hamda qandillar o'rnatilishi uchun peshtoqlarga ijod namunalari ishlangan. Ganch o'ymakorligi rivojiga o'z xissasini qo'shgan usta Shirin Murodov 1947-yilda Muqimiy nomli teatrni ikkinchi marta bezashda qatnashib kiraverishdagi yo'lak tepasini va asosiy markaziy gumbazining ganch o'ymakorlik ishlarini bajardi. 1946-yilda esa "Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosini qurishda qatnashdi. U bu ijodiy ishlari bilan vatanimiz ravnaqiga o'z xissasini qo'shgan, shu kungacha binolar hali hanuz shu ijod namunalari bilan go'zal ko'rinishini saqlab qolgan.

Yana bir azaldan shakllanib kelayotgan amaliy san'at turi bu yog'och o'ymakorligidir. Bu amaliy san'at turida ham yuqorida sanab o'tilgan naqsh turlaridan foydalanib kompozitsiyalar ishlanadi. Ishning go'zaligini oshirish uchun asosan kompozitsiyani mukammal ishlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yog'och o'ymakorligida yog'ochlar ham ishning asosiy o'rnini egallaydi. Buning uchun hamma daraxt yog'ochidan ham foydalanilavermaydi faqat mos keluvchi yog'och turlarida foydalaniladi. Masalan, yong'oq- postlog'i ko'kimtir, qalin va silliq bo'ladi. U yaxshi pardoatlanadi, undan yog'och o'ymakorligida keng foydalaniladi. Chinor- po'stlogi qizg'ish, sariq tusli yupqa, silliq bo'ladi. Chinor daraxtidan ham qimmatbaho buyumlar ishlanadi.

O'rik daraxti- yog'ochi qoramtir qizg'ish bo'lib, undan asosan mayda buyumlar ishlashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida hoirgacha rivojiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan usta O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi Ortiq Fayzullayev shu kungacha ko'plab ijodiy ishlari mavjud va yuzdan ortiq ko'rgazmalarda o'z ishlari bilan ishtirok etganlar. Usta bu san'at turini nozik did va mukammal mahorat bilan ishlaganlar. Ortiq Fayzullayev o'z ijodlari davomida yog'och o'ymakorligining uzoq asrlik boy an'alaridan keng foydalanganlar.

O'zbek amaliy san'atida yana bir keng tarqalgan san'at turidan bu "kandarok"likdir. Bu san'at turiga azal azaldan savdo-sotiq sohasida talab juda katta bo'lgan, unda foydalaniladigan metallar oltin, kumush, qizil mis va boshqa materiallardan foydalanib sa'nat asarlari yasab kelinadi. Bu hunarda ham san'at asarlarini asosiy o'rnini naqshlar va kompozitsiyalar egallaydi. Mis metalidan qadimdan keng foydalanilgan. Mis va uning qotishmalari insonning moddiy madaniyatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kandakorlik sohasida turli buyumlar yasalgan ulardan masalan, choynak, qumg'on, lagan, isiriqdon, obdasta, surmadon, dastsho'y shu kabi buyumlar haligacha o'z qadrini yo'qotmagan, shu kungacha yasab kelinmoqda [2].

Kulolchilik san'atining inson hayoti va rivoji davomida o'rni katta deb o'ylayman. Sababi har bir insoning uy ro'zg'or buyumlariga ehtiyoji bor, kulolchilik qadimdan rivojlanib shu kungacha shakllanib kelmoqda. Kundan-kunga ustalar o'z g'oyalari va ijodlari bilan turli yo'nalishlarni uyg'unlashtirgan holda zaruriy va dekorativ buyumlar yasab kelishmoqda. Kulolchilik loy va unga maxsus ishlov berish orqali ishlanadi. Kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va boshqa hududlar kulolchilik maktablarida o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari hamda koloroti bilan farqlanadi. Kulolchilikda ko'p yasaladigan buyumlar bular piyola va choynak, kosa, ko'za, tovoq, xurmacha, tovoq, xum, tandir, kichik dekorativ o'yinchoqlar va shu kabi buyumlar yasaladi. Vatanimizga tashrif buyurgan sayyohlar ko'pincha kulolchilik bilan yasalgan kichik dekorativ o'yinchoq va haykalchalarga qiziqib ularni xarid qilishadi. Vatanimizda shakllangan bu san'at turlari nafaqat O'zbekistonni balki o'z bejirimligi va go'zalligi bilan chet mamlakatlarda ham o'ziga qiziqish uygotmoqda.

Amaliy san'at insoniyat ongida o'ziga xos go'zalikni kashf etadi. Bu sohaga ta'luqli bo'lmagan shaxslarni ham qandaydir ohangrabo kabi o'z tarovati bilan o'ziga jalb qiladi. Amaliy san'at O'zbekistonning milliy an'alarini va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan san'at turidir. Sababi turli izlanishlardan olib qaraganda O'rta Osiyodagi turli hududlardan qazib olinib, topilayotgan topilmalar ham aynan o'sha davrdagi amaliy san'at buyumlari va o'sha davr nafasi bilan ishlangan ijodiy ish namunalaridir. Milliy amaliy san'at tashqaridan olib qaraganda O'zbekistonning ajralmas bo'lagiga aylangan. Amaliy san'at deganda O'rta Osiyo xalqlari, ya'ni O'zbekiston va ularning bu sohadagi chuqur mehnati ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bu soha ustalar mehnati bilan ularning halol mehnat qilib shogirdlariga o'z hunarining sir asrorlarini o'rgatib kelishi natijasida kundun kunga rivojlanib va shu kungacha o'z qadrini yo'qotmay kelmoqda.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. S. Bulatov “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” Toshkent “Mehnat”1991, 14-46, 142-223, 226-256, 284-300-betlar.
2. M.X.Mirzaahmedov, S.Ergashev “Yog‘och o‘ymakorligi” Toshkent “O‘qituvchi” 1995.
3. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
4. Расулов, М. (2021). НАУЧИТЬ СТУДЕНТОВ ВО ВНЕШКОЛЬНЫХ УЧЕРЕЖДЕНИЯХ СОСТАВЛЯТЬ КОМПОЗИЦИИ НА УРОКАХ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.44>
5. Rasulov Murad Absamatovich, & Abdurashidkhonova Muslimahon Bahodirhon kizi. (2021). Methodological Basis Of Creation, Organization And Decoration Of Platter’s Artistic Composition In Applied Art. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(04), 298–310. <https://doi.org/10.37547/tajas/Volume03Issue04-42>

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz